

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 44-sessiyasida Prezidentimizning 2017-yil 8-avgustdagi 3182-sonli va 2019-yil 8-yanvardagi 4102-sonli qarorlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha o'tgan yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vohada faoliyat ko'rsatayotgan to'rtta sektor rahbarlarining hisoboti tinglandi.

— Prezidentimiz boshchiligidagi mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, — dedi o'z ma'ruzasida viloyat hokimi, birinchi sektor rahbari T. Bobolov. — Sektorga 176 ta mahalla birlashtirilgan bo'lib, jami xonadonlarda

yo'llarini ta'mirlash va qurish uchun esa qariyb 3 milliard so'm moddiy yordam ko'rsatildi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan sharoiti og'ir oilalar farzandlari, shuningdek, chin yetim va yetim bolalarning 268 nafariga to'lov-shartnoma to'lovlarini to'lashi uchun 1 milliard 493 million so'm yordam berildi. Oilaviy sharoiti og'ir fuqarolarning bandligini ta'minlash

Xo'jaqiya" mahallalarida yangi transformatorlar o'rnatilib, elektr liniyalari tortildi. Ichki 600 kilometr tuproq yo'llariga hashar yo'li bilan toshshag'al yotqizildi. 453 kilometrlik ichki yo'l asfaltlandi. Bu ishlar uchun jami 246,2 milliard, shu jumladan, mahalliy byudjetdan 22,7 milliard so'm ajratildi. Ammo sohada hali yechimini kutayotgan muammolar kam emas. Hali 6 284 kilometr ichki yo'llar ta'mirini kutib turibdi. Boysun tumanida 808, Qumqo'rg'on tumanida 748, Sherobod tumanida 565 kilometr yo'l

Sektorlar faoliyati



Hali qilinadigan ishlar juda ko'p

670,8 ming nafar kishi istiqomat qiladi. O'tgan yili joylarda 22 marotaba sayyor qabul o'tkazib, 2 708 nafar aholidan bildirilgan 3 mingdan ziyod murojaatning 70 foizi ijobiy hal etildi. Fuqarolardan tushgan 166 mingta murojaatning 90 foizi qanoatlantirildi. Jumladan, Boysun tumanining eng olis va chekka hududi "Xo'jaidod", Uzun tumanidagi "Ulanqul", Denov tumanidagi "Quyoshli yurt", Sho'rchi tumanidagi "Bobur" mahallarida ommaviy sayyor qabullar uyushtirildi, ularda ko'tarilgan masalalar ijobiy hal etilishi ustidan nazorat o'rnatildi.

Murojaatlar ijrosi yuzasidan ta'mirtalab 114 kilometr ichki yo'llarga tosh yotqizildi, 8 ta mahalla hududida ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, 18 ming nafar aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji qondirildi. Aholi punktlarida beshta yangi elektr transformator o'rnatilib, 18 tasi ta'mirlandi, 6 kilometr elektr tarmoqlari uchun beton ustunlar o'rnatildi.

Oilaviy sharoiti og'ir 426 nafar fuqaro va ularning yaqinlarini davolanishi hamda jarrohlik amaliyotlari o'tkazilishi uchun 2 milliard 910 million so'm, 273 nafar sharoiti og'ir oilalar uy-

maqsadida 1 722 nafar shaxsga 2 milliard 192 million so'mlik asbob-uskunalar, 227 million so'mlik tikuv mashinkasi olib berildi. Imkoniyati cheklangan 652 nafar fuqaro nogironlik aravachasi, protez-ortopediya vositalari va qo'ltiq-tayoqlar bilan ta'minlandi.

Sektor hududidagi olis qishloqlarda yashovchi aholi xonadonlarini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash choralari ko'rilmogda. Denov tumanidagi "Chorgul", Jarqo'rg'on tumanidagi "Maslahatpepa", Muzrabot tumanidagi "Alpomish", Angor tumanidagi "Yuqori



mutlaqo talabga javob bermaydi.

O'tgan yili birinchi sektor hududida 3 384 ta loyihada 8,4 mingta ish o'rni yaratildi. 151 ta ishsiz oilaga tomorqalarida issiqxonaga qurish va ekin ekishga sharoit yaratish maqsadida bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan 947,8 million so'm subsidiya ajratildi.

kooperativga a'zo qilish sharti bilan 648 million so'm subsidiya berildi. Shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar" va "Yoshlar daftar" ro'yxatiga kiritilgan mehnatga layoqatsiz, nogironligi bor kishilarga doimiy ko'mak berildi. 23,7 ming nafar xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat grantlari asosida

153 nafar xotin-qiz o'qishga qabul qilindi, 5 ming nafar xotin-qizga tadbirkorlik qilish uchun 104 milliard so'm kredit ajratildi, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushgan 122 nafar ayolga uy-joy olishi uchun boshlang'ich to'lovlari to'lab berildi.

Viloyat hokimi xizmatlar sohasini rivojlantirish, hududiy investitsiya dasturi bo'yicha yangi loyihalarni ishga tushirish, "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturi doirasida 30 ta mahalla va qishloq qiyofasini yaxshilash, maktabgacha va xalq ta'limi sohalarini rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilishi haqida galdagi vazifalar yuzasidan ko'rilyotgan chora-tadbirlar xususida gapirdi.

Sessiyada deputatlar hisobot tashkil etish bo'yicha yettita talabgor aniqlandi va ularga 330 nafar ishsiz fuqaroni davlat soliq boshqarmasi boshlig'i E. Normanovlarning hisobotlari tinglandi. Deputatlarning hisobot muhokamasiga doir berilgan savollariga sektor rahbarlari javob berishdi.

Sessiyada kun tartibiga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'z muxbirimiz

Yo'g'e-?!



Viloyat prokuraturasida jamiyatimiz taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlardan biri — korrupsiyaga qarshi kurashishga doir yig'ilish o'tkazildi.

Unda viloyatning barcha shahar-u tumanlaridan prokuratura organlari xodimlari, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim, ichki ishlar, sog'liqni saqlash boshqarmalari, davlat soliq inspeksiyasi, kadastr tashkiloti, qishloq xo'jaligi va bank xodimlari ishtirok etdi.

— Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning xalqaro standartlarga mos tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmogda, — dedi o'z ma'ruzasida viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari Ravshan Namozov. — Ilk

bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularning keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun alohida organ — korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Shu bilan birga davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notarial va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini

337 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi

nazorat qilish kabi ko'plab sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmogda. Shunga qaramay o'tgan yili viloyatimizda 272 ta korrupsiyaga oid holat aniqlanib, 337 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. Bu shaxslarning 37 nafari sog'liqni saqlash, 34 nafari bank, 27 nafari xalq ta'limi, 16 nafari maktabgacha ta'lim, 12 nafari uy-joy komunal xizmat ko'rsatish, 10 nafari davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslaridir.

Viloyat prokuraturasi uyushtirilgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Rustam Ibragimov ma'ruzasida aytilganidek, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, energetika va boshqa sohalarida byudjet

mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlari ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari davom etmoqda. Misol uchun, viloyat perinatal markazi bosh hisobchisi 2018-2020-yillar davomida byudjetdan ajratilgan 425 million so'mni talon-toroj qilgan va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirgan.

Shu tashkilotda avval ham korrupsiya holat sodir etilib, aybdorlar tegishli jazoga tortilganidan xulosa qilmagan viloyat perinatal markazining bosh hisobchilari va g'aznachilar 2019-2020-yillar va 2021-yilning 30-martigacha markazda ishlamaydigan 15 nafar fuqaro nomiga ularning xabardorligisiz bank plastik karta ochib hamda mablag' tushirib, jami 886 million so'm ish haqini shaxsiy manfaatlari yo'lida ishlatib yuborganlar.

Boshqacha aytganda, byudjet mablag'larini ko'p miqdorda o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilishgan. Eng yomoni, tegishli choralar ko'rilyotganiga qaramay, deyarli barcha sohalar mansabdorlari tomonidan korrupsiya holat takroran sodir etilyapti. Xususan, ATB "Agrobank" Termiz shahar filiali kredit bo'limi bosh menejeri ta'minotchi korxonalar rahbarlari bilan jinoiy til birlashtirib, 2021-yil "Har bir oila tadbirkor" davlat dasturiga asosan 8 nafar fuqaroga ularning xabardorligisiz, nomlariga 230 million so'm kredit ajratish yuzasidan soxta

hujjatlar tayyorlab, mablag'ni o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilgan. Murojaatga asosan surishtiruv jarayonida ATB "Xalq banki" Boysun filialida juda ustasi farang xodimlar borligi ma'lum bo'ldi. Mijoz Mamadaliyeva va yana 8 nafar fuqaro jami 556 million so'm shaxsiy mablag'larini "omomatga qo'yidik, kelgusida foiz tug'adi, pulimiz ko'payadi", deb xursand bo'lib yuraverishgan. Bank chakana xizmatlar sobiq bo'lim boshlig'i esa fuqarolar topshirgan naqd pulni "omomat hisob raqamiga qo'yildi", deb omonat daftarchalariga soxta

yozuvarlar va ma'lumotlar kiritib, aslida naqd pulni fuqarolar omonat hisob raqamlariga qo'yamay, shaxsiy ehtiyojiga ishlatib, talon-toroj qilgan. Noqonuniy ish qilgan bank xodimi odamlarning davlat bankiga nisbatan ishonchini yo'qotgan. Shuningdek, yig'ilishda ko'pgina soha mansabdor shaxslari tomonidan korrupsiya holatlar bot-bot takrorlanayotgani aytilib, korrupsiya illatiga qarshi har bir fuqaro hamjihatlikda kurashmog'i shartligi ta'kidlandi.

Usmonali NORMATOV



Inson yaralibdiki, tozalik va ozodalik uning uchun kun tartibidagi birinchi galdagi maishiy masala bo'lib kelgan. Eng muhimi, bu muammolar doim insoniyat bilan yonma-yon holda mavjuddir. Bugungi kunda chiqindilardan qutulish dunyo miqyosidagi global muammolardan biriga aylangan. Ayni paytda nafaqat tuproq, havo, hatto dengiz va okean suvlari ham maishiy chiqindilar bilan bulg'anib bo'ldi, hisob. Bundan hayvonot va nabotot olami behad zarar ko'rmoqda. Hatto ayrim hayvon va o'simlik turlarining yo'qolib ketish xavfi paydo bo'ldi. So'nggi yillarda tabiatda noodatiy iqlim o'zgarishlari, anomal sovuq yoki haroratning keskin ko'tarilib ketishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Tabiatda sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarga asosan chiqindilarning

yllar bo'lganligiga qaramasdan, hududlarda hali-hamon ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xabaringiz bor, yaqinda turli xil ijtimoiy tarmoqlarda ekoqo'mita raisi o'rinbosari tomonidan chiqindi uchun pul to'lamaganlarning “svet”ini (xonadonni) tarmoqdan uzib qo'yish haqidagi taklifi ko'plab noroziliklarga sabab bo'lgan edi. Mantiqan o'ylab qaralsa, har qanday huquqiy demokratik davlatda iste'molchi va ta'minotchi, sotuvchi va xaridor o'rtasida ta'minot shartnomasi yoki oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Ya'ni bir-biriga aloqasi bo'lmagan, yo'nalishi mutlaqo boshqa-boshqa ikki tashkilotning tartib-tamoyillarini o'zaro mos ravishda huquqiy jihatdan to'lov tizimiga birlashtirish g'oyasi iste'molchi nazdida adolatsizlikning o'zginasi. Deylik, iste'molchi elektr

topshiriqlar yakuniga yetmaganini ta'kidlarkan: “Atrofni ozoda saqlash insoniy burchimiz. Maishiy chiqindilar chiqindi poligonlari, yo'l, daryo va kanal yoqalariga tashlab ketilmoqda”, — dedi. Bundan ko'rinadiki, hali bu sohada kamchiliklarimiz yetarlicha. Gapning indallosi, har bir sohada ishlab chiqilgan maxsus tizim bo'lishi kerak. Soha mutasaddilari xato va kamchiliklarni tuzatish uchun qaysidir kattaroq rahbardan maxsus topshiriq kelishini kutib o'tirmasdan, o'zlari yangi-yangi g'oya va tashabbus bilan chiqishlari zarur. So'nggi yillarda yurtimiz iqtisodiyoti mustahkamlanib, shahar va qishloqlarimiz tobora ko'rkam qiyofa kasb etib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan yurtimizda turizm salohiyatini oshirishga alohida

bajaruvchi mas'ul Nizomiddin Xudoyberdiyevning aytishiga qaraganda, ayni paytda 53 ta MFYda chiqindilarni maxsus mashinalarda olib ketish yo'lga qo'yilgan. Filialda 22 ta maxsus texnika bor. — Filialimizda maxsus texnikalar yordamida kunlik 350-400 metr kub maishiy chiqindi markaziy chiqindi yig'ish poligoniga olib chiqiladi va utilizatsiya qilinadi, — deydi Nizomiddin Xudoyberdiyev. Tuman markazidan 18-20 chaqirim uzoqlikda joylashgan “Tamshush” MFYda bo'lib, chiqindi tashish faoliyati bilan qiziqdik. Tamshushliklar

tuziladigan shartnoma nusxalarini ko'rsatisholmadi. “Oqkamar” MFY hududida joylashgan tuman chiqindixonasidagi holat har qanday kishining ko'nglini aynitadi. Tog'-tog' bo'lib uyulib ketgan chiqindilarni uvillagan shamol uyondan buyonga uchirib o'ynaydi. Shamol chiqindixonaga yaqin hududda yashaydigan aholi

NAHOTKI?!

bo'yicha chiqindi tashiydigan mashinalar qaytishda shu yerning o'zida yuvilishi kerak. Bular bo'lsa, mashina bilan qo'shib kasalliklarni shaharga qaytarib olib ketilmoqda. Eshitishim bo'yicha, yaqinda qilgan murojaatimdan keyin Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filialiga nisbatan jarima qo'llangan ekan, — deydi “Oqkamar” MFYda yashovchi fuqaro Akramxo'ja Holiqov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi viloyat tomonidan 21.02.2022-yilda taqdim qilingan ma'lumotga ko'ra, bugungi kunda viloyat miqyosida 20 ta chiqindi poligoni mavjud bo'lib, foydalanilmay turganligi sababli to'rttasi yopilgan. Ushbu poligonlardan 8 tasi obodonlashtirish boshqarmalariga, bittasi “Bio Texno Eko”ga, 11 tasi “Toza hudud” DUKga tegishli. Eng ahamiyatli jihati, “Toza hudud” DUK balansidagi Boysun, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Uzun, Sherobod, Sho'rchi tumanlaridagi poligonlarning 9 ta, Obodonlashtirish boshqarmasiga tegishli 3 ta poligon kadastr ro'yxatidan o'tmagan bo'lsa, 8 tasida davlat ekologik ekspertziasining xulosasi mavjud emas.

Xalqimizda: “Farishtalar ozoda uyga kiradi”, “Baraka — toza-ozoda uyda bo'ladi” degan gap bor. Chiqindi tashish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan o'z haq-huquqingizni talashadigan bo'lsangiz, siz bilan murosqa qilish o'rniga aybingizni izlashadi. Vaholanki, sizdan talab qilinayotgan majburiyatlarning aksariyatiga o'zlari amal qilishmayapti. Bunga “Toza hudud” DUK Sho'rchi tumani misolida amin bo'ldik. Albatta, bir kunlik tashrif mobaynida korxonaga faoliyati bilan to'liq tanishishning imkoni yo'q. Ammo shartnoma talablari, iste'molchi va ijrochi o'rtasidagi burch hamda majburiyatlarga amal qilish barcha rivojlangan, demokratik davlatlar qatori bizning yurtimiz qonunchiligi uchun ham xos xususiyatdir. Ya'ni, jamiyatda inson qadri birinchi o'rinda turadi. Shunday ekan, iste'molchilarning haq-huquqlarini kamsitishni bas qilaylik! Haq-huquq esa barcha uchun barobar.

Xolmuhammad TOG'AYMURODOV

HUQUQSHUNOS MINBARI

ISTE'MOLCHI NIMADAN

yoxud aholini “Toza hudud” DUK faoliyati qoniqtiryaptimi?

zararsizlantirilmayotganligi, tabiiy boyliklardan o'rinsoy foydalanish, sanoat korxonalaridan tomonidan atrof-muhitga chiqarilayotgan zaharli gazlarning miqdori oshib ketganligi sabab bo'lmoqda. JSTning ma'lumotiga ko'ra, tabiatda havoning ifloslanishi insonning butun tana a'zolaridan tortib, ona qornidagi chaqaloqning rivojlanishigacha salbiy ta'sir o'tkazayapti. Buning natijasida har yili kamida 7 million odam hayot bilan vidadashmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda respublikamiz miqyosida chiqindini tashish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Xususan, viloyatimizda “Bio Texno Eko”, “Toza hudud” DUK kabi korxonalar aholiga chiqindi tashish xizmati ko'rsatmoqda. Bu singari tashkilotlarning faoliyat ko'rsata boshlaganiga bir necha

energiyasi uchun oldindan millionlab pul to'lov qilgan bo'lsa-yu, chiqindidan arzimas qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qo'yishsa, “peredoplata”ning mantig'i bo'ladimi? Har bir iste'molchining o'z haq-huquqlari, talab va takliflari, bundan tashqari, buyurtmachi va iste'molchi o'rtasidagi o'ziga noma'lum bo'lgan ommaviy shartnomada aks etgan huquq va majburiyatlari borligini ko'pchilik bilmaydi. Bilganlar esa ommaviy shartnomalar tuzgan idoraga borishni o'ziga ep ko'rmaydi (Bu yerda “Toza hudud” va MFYlari o'rtasida aholi nomidan tuzilayotgan ommaviy shartnomalar ko'zda tutilmoqda). Mamlakatimiz Prezidenti 2-fevral kuni ekologik holatni yaxshilash bo'yicha o'tkazgan videoselektorda maishiy chiqindi poligonlarini ishga tushirish bo'yicha berilgan

e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizga xorijlik sayyohlarni jalb etish uchun, avvalo, shahar va qishloqlarimiz ozoda bo'lishi kerak. Buning uchun mahalliy aholida shaxsiy madaniyat shakllanishi kerak. Bunday deyshimizga sabab, viloyat markazi Termizdagi shahri azimda aholi tomonidan yo'l chekkalari va piyodalar yo'lakchalariga turli xil maishiy chiqindilar uloqtirilmog'ida. Ba'zan pista chaqib po'chog'ini ko'chaga tashlab ketayotgan esli-hushli qiz-juvonlar, sigaretdan qolgan tamaki qoldig'ini duch kelgan yerga uloqtirayotgan, goh nosvoyt flaylayotgan erkaklar tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

Asosiy masala, chiqindi tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar faoliyati bilan bog'liq. Termiz shahridagi yo'l chekkalari hamda lotoklarning ichida to'plangan chiqindilar ba'zan oylab qolib ketmoqda. Temir chiqindi qutilarining tagidan sizib chiqqan izava suvlar ko'lmaklanib xunuk manzara kasb etadi. Shaharning qoq markazida yuzaga kelayotgan bunday vaziyat, ayniqsa, yoz oylarida aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ayni paytda viloyatimizda “Bio Texno Eko” MCHJ hamda “Toza hudud” DUK chiqindi tashish faoliyati bilan shug'ullanadi.

“Bio Texno Eko” MCHJ Termiz shahri, Angor va Termiz tumaniga, “Toza hudud” DUK qolgan tumanlarga xizmat ko'rsatadi. “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filialida vaqtincha boshliq vazifasini

2000-yillarda Sariosiyo voqealaridan keyin shu hududga ko'chirib keltirilgan. Bugungi kunda mahallada 914 nafar aholi bo'lib, 170 ta oila, 212 ta xo'jalik mavjud. Aholining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. MFY raisi Hayitqul Qurbonovning aytishiga qaraganda, aholi bilan “Toza hudud” DUK o'rtasida hech qanday shartnoma tuzilmaganligi bois xonadon egalari tomonidan chiqindilar qishloqning bir chekkasiga tashlanayotgan ekan. Ya'ni, “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filiali mutasaddilarning tumanidagi mavjud 53 ta mahalla bilan shartnoma tuzilgan degan vaji o'z isbotini topmadi. Tabiiyki, bu mahallada chiqindi tashlanadigan hududni hech kim nazorat qilmaydi. “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filiali tomonidan taqdim etilgan yuridik tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar uchun qattiq maishiy va suyuq chiqindilar to'plash va olib chiqib ketish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha 2022-yilgi namunaviy shartnoma asosan manfaatdor tarafning manfaatini ko'zlab tuzilgan. Shartnomada chiqindilarni olib chiqib ketish davriyligi, muddati ko'rsatilmagan. Shuningdek, namunaviy shartnomaning 2.3-bandida “Prezidentimizning 2020-yil 22-noyabrda qabul qilingan PF-5580-sonli farmoni” deya misol keltiriladi, ammo bu farmon aslida 2018-yil 22-noyabrda qabul qilingan. Shartnomada yil sanasi nega buzib ko'rsatilganligini, ochig'i, tushuna olmadik. “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filiali mutasaddilari negadir jismoniy shaxslar bilan

NOROZI?

xonadonlari hovlisiga qadar turli xil polietilen paketlarni uchirib olib keladi. Chiqindixonada xo'rak ilinjida daydib yurgan 50-60 chog'li itlarning to'dasini ko'rib ajablandik. Ushbu holatni o'zini “Toza hudud” DUK Sho'rchi tuman filiali mexanigi Rustam Qurbonov deya tanishtirgan mas'ul shunday izohladi:

— Bu itlar yemak ilinjida yurishadi. Ammo hech kimga ziyoni yo'q, teginmaydi.

— Itlarni haydashning iloji yo'qmi bu yerdan?

— Bu ish bilan tuman obodonlashtirish boshqarmasi shug'ullanadi, — deydi. Chiqindixonaga yaqinida istiqomat qiluvchi aholining e'tirozlariga quloq tutdik.

— Ushbu chiqindixonaning hidiga chidab bo'lmaydi. Ayniqsa, yoz oylarida hasharotlar ko'payishi natijasida odamlarga ziyon yetkazmoqda. Pashshalar chaqishi natijasida farzandlarimizda turli xil gijjalar paydo bo'lmoqda. Har yili bir marotaba farzandlarimizni Termiz shahrida davolatib turamiz. Bu yerdagi antisaniitariya holati bo'yicha murojaat qilmagan joyimiz qolmadi. Murojaatimiz yuzasidan bizga, “Bu yerdan ko'chib ketinglar” deb do'q-po'pisa qilishdan nariga o'tishmayapti. Hech kim bizning arzdodimizni tinglamayapti, — deydi Oyposhsha Boltaeva.

— Murojaatlarim ijobiy hal bo'lmayapti. Bu yerdagi chiqindilar 7-8 yildan beri yotibdi. Yozda umuman buning hidiga chidab bo'lmaydi. Olib kelib tashlangach, uzoq muddat shunday yotadi. Qoida



Mulk o'zi nima? Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir, ya'ni mulk egasi o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan abadiy foydalanishi, o'zining mulk huquqini xohlagan vaqtda tasarruf etishi mumkin. Hech kim mulkdorga o'z mulkini egallab turishi, undan foydalanish va tasarruf etish uchun muddat belgilash huquqiga ega emas.

Amdagi qonun hujjatlariga ko'ra, davlat organining mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki ekinlar joylashgan yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga qonunlarda belgilangan hollar va tartibdagina yo'l qo'yilishi, bunda mulkdorga olib qo'yilgan mulkka teng mol-mulk berilishi va uning ko'rgan boshqa zararlar to'lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to'la hajmda to'lanishi belgilangan bo'lsada, keyingi vaqtlarda ayrim

Xususiy mulk daxlsiz

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidagi, mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi belgilangan.

mansabdor shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlar chiqarilishi natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarning mulkiy huquqlari buzilganligi holatlarini ko'plab uchratish mumkin.

Albatta, qonun hujjatlariga ko'ra, davlat buzilgan xususiy mulk huquqining tiklanishini va uning sud orqali himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulkdorga yetkazilgan zarar o'zini uni yetkazgan shaxs tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq to'la hajmda qoplanishi kerak. So'nggi vaqtlarda mulkdorga yetkazilgan zarar o'zini unga ziyon yetkazgan shaxs tomonidan qoplab berish va buzilgan xususiy mulk huquqining tiklanishiga doir sud qarorlari chiqarilib mulkdorlarning huquqi tiklanmoqda. Bu

esa xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlanishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning



taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadri ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida, mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash, xususiy mulk ustuvorligini asosiy tamoyil sifatida belgilash, shu jumladan davlat idorasining rasmiy ma'lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning huquqini himoya qilish tizimini joriy etish orqali mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish borasida asosiy vazifalari belgilab berildi.

S.RAXIMOV,
Surxondaryo viloyati sudi sudyasi

Bugunning gapi

Ko'pchilik taksi sariq rangining an'anaviy rangini hisoblaydi, ammo Londonda birinchi avtomobillar qizil yoki yashil bo'lgan. Sariq avtoulavlar “Xertz” korporatsiyasi asoschisi Jon Xertzning tashabbusi bo'lgan.

“SHOSHANG G'IRT YOLCHIMAS...”

Odamning taksiga nima uchun ishi tushadi? Shoshganidan, qayergadir kech qolganidan, albatta. Ammo taksistlarning bu borada o'z qarashlari bor... Kezi kelsa, sizning shoshganingiz ham ularni qiziqitirmaydi. Yo'l-yo'lakay mashinasining ko'zlarini (yoritkichini) piriptirib, odam chorlaydi. Sizdan so'rov-istovsiz, mashinasiga sig'ganicha odam joylab, yo'lda davom etadi. Taksiga mindingizmi va yoki marshrutkaga — bila olmay, jizg'anangiz chiqadi. Kamiga oynachadan ortga qarab, yo'l-yo'lakay hali salonda joy bor-yo'qligini ham kuzatib boradi... Bunday taksistlar hozir ommalashgan bo'lib, ularni “taksi — changyutkich” deb atashadi.

Aniq bilamanki, bu vaziyatda haqingizni talab qilish istagi bo'g'zingizda bo'g'ilib “vafot etadi”. Tilga ko'chmagan g'azabingiz bilan manzilga yetasiz. Manzil bo'yab bir-ikki mijozni ham o'z manzilida qoldirasiz... Gohi og'ziga bemalol sig'gan yo'lkiraning balandligidan ishingizni tashlab taksi qilish haqida ham o'yab qolasiz. Taksist va mijoz tortishuviga guvoh bo'lasiz? Qarg'anib-qarg'anib, eshikni taraqlatib yopgan opaxonning ortidan “tut-tut-tut” etib berkitiladigan so'kinishlar yetib oladi... Bu tajriba vaqti. Siz ham shunaqa so'kishlarni eshitmaslik va albatta, yoqa yirtishib o'tirmaslik uchun aytgan pulini qovog'ingizdan qor yog'ib uzatasiz...

— Rossiya Federatsiyasida bir muddat taksistlik qildim, — deydi termizlik Furqat Nazarov. — U yerda “o'zbekchasiga” avtomobil boshqarishim hattoki odamlarni jahlanishiga sabab bo'lardi. Kezi kelsa, qonun buzayotganim haqida menga aytishib, ortimdan rahbarlarimizga shikoyat qilishardi. Mana ikki yildan beri Termizda taksi qilyapman. Narxni taksistlarning o'zlarini belgilab olgan. Qonun-qoida yo'q. Xohlagan joyida burilib olishi, kerak bo'lsa, ko'zda tutilmagan joyda to'xtashiga ko'nikolmayapman. Ba'zan odamlarning o'zlarini: “Nimaga yo'lni uzoq qilyapsiz? Shu yerdan burilib oling... mana bu yo'lda to'xtang...” degan gap bilan tushunishni istamay janjal ham qilishadi. Men chet elda tushundimki, qonun fuqarolar amal qilsagina ishlar ekan.

Furqat aka taksistlik kasb ekan, uning ham qonun-qoidasi, yozilgan-yozilmagan burch-vazifasi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Odam ustiga odam ortib, bir iste'molchining huquqi buzilishiga yo'l qo'yaslik, mijozning vaqtini olishga hech kimning haqqi yo'qligini anglashda jamiyat asos bo'lishi kerak deydi. Shoshqaloqlik har ikki o'rinda ham asabiylik keltirib chiqaradi. Taksistlar orasida odam olishga talashuv ortidan ikki haydovchining tortishib ketishi, yo'lning o'rtasida mashinasini to'xtatib

o'dag'aylash holatlariga ham guvoh bo'lganmiz. Tirbandlik avjiga chiqqan shahar ko'chalarida taksistlarning bir-biriga baqirib yo'lda davom etishi esa kundalik holatga aylandi-qoldi...

KO'MAGI HAM, KURMAGI HAMBOR...

Vijdoni eshak terisi bilan chirmalmagan va odamiyligi mashina g'ildiraklari ostida chilparchin bo'lgan taksistlar yetarlicha topiladi. Ularni aynan benzin narxi oshganda (gazda yursa ham, benzin narxi bilan ish tutadigan taksistlar bor), karantin deb yo'llar berkitilganda (sizdan olgan o'n mingim meni jarimadan qutqara olmaydi deb to'rt kishini salonga “qamagan” shovvzlarini ko'rdik), “kechqurunlari taksi qimmatlashadi, bir “ostanovka” besh ming...” bahonalari bilan tanglayi ko'tarilganlarga to'qnash kelganingda yaqqol tanib olasan kishi.

— Termiz shahri bo'yab har qanday manzil besh ming deb bilaman, — deydi o'zini Fozil deb tanishtirgan haydovchi. — Faqat yo'lda odam olishga ruxsat so'rayman. Manguzardan to yangi avtovokzalga ham shu narx. Aslida bitta yo'lovchining puliga uchtasini manziliga eltsa bo'ladi. Eng muhimi, barakasini bersin.

Karantin paytida bir kunlik topayotgan pulini ikki soatda jamg'arganlarning suhbatini eshitib,

etuvchi “temir daftari” borlari haqida ham eshitganmiz, bilamiz. Allaqachon “mijoz haq” tamoyili ustuvor bo'lishi kerak bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalarida o'zini “prav” deb bilguvchi taksistlar esa guruchning kurgamidan o'zga emas.

MASLAHAT YO'LKIRANING ICHIDA

Ba'zan haydovchilarning jamiyat haqidagi fikrlarini eshitib, ensam toshdek qotib qoladi... Nohish bo'yicha atrofdagilarni nokautga uchrata oladigan WJS (dablu jey si) yo'nalishi (ya'ni kengaytmasi “vaysab-vaysab joningni sug'urib oladigan” degan ma'noni beruvchi) bo'yicha oltin kamarlilar — yo'l harakati xavfsizligi xodimininga ko'rsa kamarini taqadiganlar bilan suhbatlashmay desang ham og'zing tinmaydi-da...

Nohaqlik kamlik qilgandek, tan olishga bo'yni dov bermaydigan azamatlar turizmning asosiy dushmanlaridan deb izohlangani bejiz emas. Tasavvur qiling yo'l charchog'idan karaxt turistning peshonasida sumkasini tortqilab, jag'i-jag'iga tegmay manzilga eltishini,

bo'lmag'ur fikrlarni joylab qo'yadurg'on “boksor” taksistlarning dunyoqarashi qachon o'sar ekan...

Avtoulavda bo'lgan vaqtiniz kasbingiz haqida og'iz ochmang. Taksi boshlab bergan beqiyos nutq salondagilarning “ura-ura”si bilan avjiga chiqadi. Qarshi so'zlangan nutqingiz sabab “xalq dushmani”ga aylanasangiz, meni aytdi dersiz?! Qolaversa, jamiyatni rivojlantirish, kezi kelsa, Davlat boshqaruvi haqida ham takliflari bo'lgan taksistlarning yo'l harakati haqidagi uquvi yo'qligi achinarli. Yana bir-biriga “pravani sotib olgan-da” deb kinoya qilishadi.

AVARIYALAR YO'L TANLAYDI...MI?

Baxtsiz hodisalarning asosiy qismi tezlikni oshirish oqibatida deb izohlaydi statistika. Lekin yo'llarning muammoli

yo'lovchilar ham bu borada aybsiz emas. Ular ham ba'zan injiqlik qilib, oshirib yuborishadi. Yoki tezroq manzilga yetishni istashadi, yoki yo'l terib kelayotganingizda o'rgatuvchilik qilishadi. Har ikkisi ham haydovchiga bosim.

“QIZINGIZNI MANGA BARING, OPPA-OPPA...”

Madaniyat salonda sezilib tursa, yo'l bo'yi ezilib bormaysan aniq. Haydovchining tanlagan repertuari ham asab torlarini chertaveriganidan

TAKSISTLAR BOR HAYDOVCHILAR NAQSHIDUR... 1907-yilda ingliz poytaxti ko'chalarida “taximetr”lar uchray boshlagan. Ular hozirgi taksilar emas... “Taximetrlar” — fransuzcha “soliq” deganidir. Biroz vaqt o'tgach, barcha taksimetrlar taksi haydovchisiga, ularning transporti — taksiga aylandi.



ekanligi bunda ko'z yumarli holat emas. Yo'ling ravon bo'lsa ham, o'ydim-chuqur bo'lsa ham dardingning davosi bo'lmagach, bahonaga kengroq o'rin qoldirasan kishi.

— 2001-yildan beri taksistlik qilaman, — deydi Qunduz Xolmatova. — Denovga asosan qatnaganman. Hozirda shahar ichida mashina boshqaraman. Shaharlararo qatnov o'ziga xos qiyin. Yo'l masalasi tishingni sindiradi. Kamiga ayol kishi rulda ekanligi ayrim haydovchilarning g'ashiga tegadimi? Yoki hushtak bilan, yoki uzluksiz signal bilan bezovta qilishadi. Shahar aynan shu yo'lda bedarvoza. Hamma xohlaganidagi yuradi. Piyodaga ham qonun-qoida yo'q, haydovchi ham yo'l harakati haqida bor bilganlarini unutadi. Yo'l terib yurgan kunlarimiz yillarga ulanib ketdi.

Prezidentimiz raisligida o'tgan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha videosektor yig'ilishida ta'kidlangan yo'llar qatori — “Termiz — Dushanbe” (M-41) xalqaro yo'lining Jarqo'rg'on — Denov qismi (80-kilometr)da har yili o'nlab odamlar halok bo'lmoqda.

— Denov avtoavtoshaxabakatida odam talashib, ulog'ayirgandek odam ayirib yo'lga chiqqandan keyin odamda xotirjamlik qoladimi? — deydi Qunduz Xolmatova. — Oila boqish, ro'zg'orimni butlay deb ishga o'tlanadigan odamlarning odamiyligidan yiroqlashib ketayotgani jahlimni chiqaradi. Men ham yuz-ko'zing demaydigan taksistlar qatoriga o'tdim. Ayol kishiman deyingiz bilan: “ayolning o'rni uyu” deb dag'dag'a ham qilib qo'yishadi.

Taksistlik faoliyati davomida noto'g'ri to'xtash bilan izohlangan jarima to'lganini kulib eslayotgan Qunduz opa oltimishni qoralab qolgan. Ammo haydovchilik insonga kuch va ishonch bera olishini aytar ekan, mingan mashinalarining har biri bilan bog'liq xotiralaridan o'rtoqlashadi.

— Haydovchilarning yomon odatlari ko'p bo'ladi, — deydi Qunduz opa. — Lekin

yangrayotgan qo'shiqdan ko'ra asabiyliging mayinroq, yoqimlirrog' tuyula boshlaydi. Mashinasiga to'rt xil dunyoqarash egasini mindirib olgan haydovchi, nahotki, o'ylamasa, u sevgan “moshxo'rda” birov uchun afzal taom bo'lmasligi mumkinligini. Yo'lingiz shahar ichi bilan cheklansa-ku kuningiz tug'ibdi. 5-10 daqiqada manzilga yetasiz — qutulganingizga shukrona aytasiz. Tumanga chiqdingiz-u saloni qaqshatib: “Bir qiz keldi krasiva, minib keldi “Captiva” yangrab yotsa... dodingizni keyingi “Qizingizni manga baring, oppa-oppa” eshitarmidi?! Yana o'tkazishini so'rasangiz, “Sizda ham pul ko'payib ketdi” deb cho'ntagingizga ishora qilishni boshlashadi.

Har kimning o'z olami, didi, dunyosi bor, eshitganda “e o'l-a” deyiladigan zamon musiqasining sarqitlarini majburan “iste'mol qildirish” yaramaydi. Gapiirsangiz, bundan keyin boshqa avtoulav tanlashingizni tavsiya qiluvchi haydovchi tushunmayaptiki, biz uning avtoulavidan manzilgacha joy “ijara”ga olganmiz. U biz uchun taklif etayotgan xizmatga pulini ham to'laymiz, demakki, sharoit yaratib berishga majbur...

Taksi tanlaydigan tannozyday ko'rinish niyatim bo'lmas-da, iloji boricha avtoulavga mingan zahotim talablarimni aytib olaman. Agar aytishning iloji bo'lmasa, avvalroq ayta olganlarimning telefon raqamlarini tera boshlayman. Musiqi ilhom berish bilan birga ilhomingizni “o'ldirishi” ham mumkin... Shunday ekan, hamrohlikka tanlayotganingiz sizga suiqas qilishiga yo'l qo'ymang. Zero, odamning ohidan dardi ma'lum zamonada ortiqcha gap-so'zlarisiz, hattoki xalal qilmay manzilingizga eson-omon eltib qo'yadigan haydovchiga to'qnash etsin deydishdan o'zga chora yo'q...

Kurshid KARSHIYEV

10 ISH KUNIDA

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan “O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslariga doimiy foydalanish (egalik qilish), ijara va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishga doir ma'muriy reglamentni” tasdiqlandi. Ma'muriy reglamentga ko'ra, yer uchastkalarini xususiy lashtirish bo'yicha davlat xizmatlari DXM yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ko'rsatiladi. Bunda ariza to'ldirilib, unga quyidagilar ilova qilinadi: • ishonchnoma (ariza

beruvchining vakili murojaat qilganda); • yer uchastkasini xususiy lashtirish to'g'risidagi qaror (ariza beruvchi – yuridik shaxs bo'lsa). Ariza tuman (shahar) qurilish bo'limi, kadast filiali tomonidan ko'rib chiqilishi uchun “Yerxususiy lashtirish” axborot tizimiga yuboriladi. Kadast filiali ariza tushgan kundan 5 ish kunida ma'lumotlarni tekshiradi. Tuman (shahar) qurilish bo'limi 3 ish kunida yer joylashgan hududning (aholi punkti yoki ular orasidagi hududni) rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to'g'risidagi hamda ularni qurish haqidagi tasdiqlangan hujjatlarga

yer uchastkasi joylashuvining muvofiqligini ko'rib chiqadi. “Yerxususiy lashtirish” axborot tizimida ariza natijalari bo'yicha (kelishilganligi yoki rad etilganligi) xabarnoma shakllantirilib, ariza beruvchiga yuboriladi. Shunga ko'ra, ariza beruvchi 10 ish kunida yerni sotib olish to'lovini amalga oshiradi. To'lov o'z vaqtida to'langanda, yerga mulk huquqini beruvchi davlat orderi shakllantiriladi. Kadastr boshqarmasi order asosida 2 ish kunida yerga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazadi va undan ko'chirmani ariza beruvchiga yoki DXMga yuboradi. Davlat xizmatlari ko'rsatish uchun BHMning 10 foizi (bugungi

kunda 27 ming so'm) miqdorida yig'im undiriladi. YalDXP orqali xizmat ko'rsatilganda yig'im miqdori 24 300 so'mni tashkil etadi. Yig'imlar va xususiy lashtirilayotgan yer uchastkasining sotib olish qiymati to'langanligi tasdig'i “Yerxususiy lashtirish” axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Reglament kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilariga berilgan yer uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Jo'rabek ABDULAZIZOV, viloyat adliya boshqarmasi huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Jarqo'rg'on tuman davlat soliq inspeksiyasi soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash sho'basi davlat soliq bosh inspektori Omonov Jamshid Shavkatovichga tegishli SU 3042 raqamli, viloyat Davlat soliq boshqarmasi yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi davlat soliq bosh inspektori Xudoyberdiyev Elmurod Sattorovichga tegishli SU 2667 raqamli, Qiziriq tuman davlat soliq inspeksiyasi soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo'limi davlat soliq bosh inspektori Shaymardonov Gulboy Xushboqovichga tegishli SU 2974 raqamli qat'iy hisobda turuvchi xizmat guvohnomalari yo'qolganligi MA'LUM QILINADI. VILOYAT DAVLAT SOLIQ BOSHQARMASI Termiz shahridagi “Madad” advokatlik byurosi advokati Ro'ziqulova Fazilat Abdurasulovnaning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi va advokatlik maqomi tugatilganligi MA'LUM QILINADI. Denov tumanidagi “ABRORGA BARAKA” xususiy korxonasi tegishli muhr va tamg'a yo'qolganligi MA'LUM QILINADI.

2006-yilda Termiz pedagogika kolleji tomonidan Tuxtasheva Surayyo Abduraxmonovnaga berilgan K 558927 raqamli diplom va ilovasi yo'qolganligi MA'LUM QILINADI. 2019-yilda Sherobod tumanidagi 57-umumta'lim maktabi tomonidan Norto'rayev Rufatga berilgan UM 0184282 raqamli attestat yo'qolganligi MA'LUM QILINADI. 2020-yilda Termiz shahridagi 15-sonli umumta'lim maktabi tomonidan Ko'charova Munisa Muxiddin qiziga berilgan U 8432005 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi MA'LUM QILINADI. 2012-yilda Angor tumanidagi qurilish kommunal kasb-hunar kolleji tomonidan Radjabov Sobirjon Eshniyozovichga tegishli KA 2571962 raqamli diplom va ilovasi yo'qolganligi MA'LUM QILINADI.

Har bir sahna rassomi uchun asosiy maqsad — yaxshi spektaklning yuzaga kelishiga munosib hissa qo‘shishdir. Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida ko‘pyillardan buyon samarali faoliyat yuritib kelayotgan Xayrullo Chorshanbiyev senografga xos ana shunday tushunchalarni ko‘ngliga jo etib, ijod qilayotganligi uchun ham muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Ta’kidlab o‘tish zarurki, hozirgi kunda mamlakatimiz teatrlarida ishlayotgan sahna muvaffaqiyatlariga erishmoqda.

ijodiy faoliyat bilan bundan atigi o‘n yillar avvalgi rassomlar ishini tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki sahnani rang-barang bezaklar bilan to‘ldirib tashlash, aktyorlar uchun bor-yo‘g‘i fon vazifasini o‘taydigan dekoratsiyalar qurish orqali yaratilgan spektakl bugungi kun tomoshabinini qanoatlantira olmaydi.

Negaki, tomoshabinlarning did va saviyasi, sahna san’ati to‘g‘risidagi tushunchalari o‘zgarib qoldi. Shunga yaras, har jihatdan to‘kis spektaklga bo‘lgan talab ham ortib borayotir. Qolaversa, biz yuksak texnologiyalar asrida yashayapmiz.

Ongimizga singib ketgan an’anaviy sahnani yo‘qqa chiqarishga intilishlar o‘rnini yana an’anaviy shaklga qiziqishning kuchayishi kabi ijodiy tushunchalar egallamoqda. Bu esa tomoshabin dunyoqarashida o‘ziga xos o‘zgarishlar, tasavvur hamda tushunchalarning yuzaga kelishiga turtki beryapti. Kino va televideniya vositalarining dadil kirib kelayotganligi har bir sahna rassomidan asl ijod namunasini yaratishni va o‘ziga ishonib topshirilgan spektaklni sahnalashtirishda yangiliklarni mahorat bilan qo‘llay olishni talab etmoqda.

Xo‘sh, ana shunday qizg‘in ijodiy jarayonlar ketayotgan, tomoshabinlarning did va talabi o‘shib borayotgan bir paytda senograflarning maqsadi va vazifasi qanday bo‘lishi kerak? Teatr olamida qanday o‘zgarishlar ro‘y bermasin, baribir, senograf shunchaki sahna bezaklari yoki mahobatli dekoratsiyalar tayyorlovchi bo‘lib qolmasligi kerak. Har qanday sharoit va vaziyatda ham u o‘zining asosiy maqsadidan chekinmasligi zarur. X. Chorshanbiyev tomonidan ishlangan dekoratsiyalar, o‘ylab topilgan sahna bezaklari o‘ziga xos va e’tiborga molik.

Chunki u senograf sifatida dramatik sahna asarida aks etgan voqea qatida qanday mavzu yashirin ekanligini aniqlash va shu asosda voqea makonini hal qilish maqsadini ko‘zlab mo‘yqalam yuritadi. O‘rni kelganda eslatib o‘tayki, senografik makon — spektakl rassomi tomonidan sahna makoni chegaralarida yaratiladi — postanovka obraziga mos ravishda sahnaga yangi tus beriladi. Senografik makon har bir sahna asarida, har bir sahnalashtirish jarayonlarida almashinib

turishi mumkin, chunki u o‘zgaruvchidir. Shu ma’noda olib qaraganda, senograf — spektakl makonini yaratuvchi hamda muammolarni amaliy bajaruvchi, spektakl orqali yaratiladigan ziddliklarni bartaraf etish maqsadida izlanish olib boruvchidir. Bu borada mamlakatimizda taniqli senograf — O‘zbekiston san’at arbobi Shuhrat Abdumalikovning bir fikrini eslatish joiz: “Boshlang‘ich holatning obyektivligini yaratish uchun — adabiy, tabiiy, arxitektura san’atining boshqa bir turida senograf o‘z ijodida bir qator qarama-qarshilikning

asos qilib olingan (sahnalashtiruvchi rejissyor — F. Boltayev) spektaklga ishlangan dekoratsiyalar rejissyor va rassom hamkorligi ajib bir uyg‘unlik kasb etganligini namoyon etib turibdi. Buni rejissyor ilgari surgan g‘oyaga rassom o‘ylab topgan falsafiy mushohadalarga asoslangan yechim biri-birini yorqin ifodalarda to‘ldirib, yaxlitlikni ta’minlab turganligida ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda rassom o‘ylab topgan muhim topilma diqqatga sazovordir. Chunki rassom sifatida X. Chorshanbiyev spektakl g‘oyasiga falsafiy nuqtayi nazardan qaragan holda ish tutgan. Asarda ishq-sevgi bilan bog‘liq ko‘hna hamda mangu mavzu tasvir etilgan. Rassom rejissyor g‘oyasini yanada yorqinlashtirish maqsadida novatorona yechim o‘ylab topgan. Spektakl dekoratsiyasi uchun oq rangli daraxtlar va qip-qizil olmalar tasviri tanlangan. Novatorlik shundaki, rassom daraxtlar tanasini, shoxlarini oppoq sochlari o‘ramini

tarzda talqin etilganligi bois, tomoshabinlar diqqatini jalb etdi. Bunga esa ushbu sahna asari uchun mutlaqo yangi rejissyura hamda rassomlik yechimi o‘ylab topilganligi sabab bo‘ldi. Chunki spektakl Amir Temur hayotining ma’lum bir manbalarda aks ettirilgan, ammo hali sahnaga olib chiqilmagan qirralarini ishonarli tarzda namoyon eta oldi.

Aslida ham Xayrullo Chorshanbiyev har bir spektakl uchun yaratgan dekoratsiyalarda, u ishlagan eskizlarda ana shunday nozik topilmalar ko‘zga tashlanadi. Eng muhimi, uning eskizlarida keng osmon, oppoq bulutlar, samoga intilgan dov-daraxtlar, farishtalar ramzi sahnaga hamohang ranglarda ifodalanib, musavvirning o‘ziga xos mo‘yqalamini qalban his etishga undab turadi. Negaki, ana shu manzaralar orasida Inson qiyofasi yaraqlab ko‘zga tashlanadi. Mashhur

San’at fidoyilari

faqat bitta millat misolida olinmagan. Ikkinchi jahon urushi deyarli barcha xalqlar, millatlar boshiga qablarga jarohatli talafotlar keltirganligi tanlangan liboslarda, obraz va personajlar talqinida o‘ziga xos tarzda ijro etilgan. Spektaklda rejissyor va rassom tomonidan juda o‘rinli topilmalar ham bor. Masalan, yigitlarni, erlarni frontga jo‘natish paytida non tishlatish, yigitlar o‘z belbog‘larini yechib ayollar beliga bog‘lab qo‘yishi, turli millatlarga tegishli ekanligini ta’kidlash maqsadida nonlarning turlicha shaklda yasalganligi, tishlangan nonlar esa shiftga, sandiqqa, ravoqqa, tokchaga, peshayvondagi ustunlarga ilib chiqiladi. Ular asta-sekin ko‘paya boradi va ajib, lekin g‘amgin manzara kasb etadi. Spektakl so‘ngida tishlangan nonlar atrofida birin-ketin mitti yulduzchalar porlay boshlaydi. Bu ham g‘oyani yorqinlashtirishga xizmat qiluvchi kuchli topilma — yechimdir. Chunki u urushga ketganlar jang maydonlaridan qaytmaganlarini, mangu yulduzlarga aylanib ketganligini anglatadi.

Ushbu uchta spektakl haqida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sahna muvaffiqiyatli spektakl ko‘rinishini ta’minlovchi oddiygina bezakchi emas. U — sahna asari g‘oyasini tomoshabinga yetkazishda sahnalashtiruvchi rejissyor bilan teng darajada izlanadigan, mehnat qiladigan ijodkoridir. Bunday ijodkorlik esa, sahnalashtiruvchi rassom nechog‘lik mahorat bilan, ayni paytda, o‘ziga xos elementlarni izlab topgan holda sahna bezagi ishlashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demoqchimanki, rassom predmet va detallarni, faktura va ranglarni to‘g‘ri hamda yuksak did bilan tanlay olishi zarur. Bu uning bevosita vazifasidir. Bu vazifani Xayrullo Chorshanbiyev iqtidorli rassom sifatida mahorat bilan uddalab kelyapti.

To‘ra QOBILOV,
O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi a‘zosi, dramaturg

Sahna muvaffiqiyatli

obyektiv tomonlarini ochib berishiga to‘g‘ri keladi. “Qarama-qarshiliklar bilan ishlash” faqat falsafa-dialektikaning ustunligida emas, balki har qanday rassomning ijodiy amaliyoti ham muhim ahamiyatga egadir”.

Har bir spektakl uchun u alohida ranglar orqali ifodalangan yechimini, mazmunni ta’kidlab turadigan urg‘uni topish shart. Bu yechim hamda urg‘u esa rassom o‘zining mahorati, uquvi, dunyoqarash va tushunchasini to‘liq ishga solgan holda, yumshoq yoki katta hajmdagi materiallarga tushiriladigan shakllarni to‘g‘ri bo‘yaganida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Sahna muvaffiqiyat uchun bunday ishlash usuli shuning uchun zarurki, har qanday sahna bezagi yoki qo‘llanilgan rangda mujassam etilgan sahna asari g‘oyasining yorqin ochilishiga xizmat qiluvchi urg‘u eng so‘nggi qatorda o‘tirgan tomoshabinga ham yetib borishi va tushunarli bo‘lishini ta’minlashi zarur.

Nazarimda, har bir senograf puxta bilishi va amal qilishi zarur bo‘lgan yana bir muhim xususiyat shundaki, teatr rejissyori sahnalashtirish uchun biror-bir asarni tanlab, shu asar ustida ish boshlar ekan, albatta, uning asar to‘g‘risida o‘z didi, tushunchasi, olg‘a surayotgan g‘oyasi, eng muhimi, o‘ziga xos badiiy yechimi ham bo‘ladi. Agar sahnalashtirish jarayonlarida rejissyor kabi, sahnalashtiruvchi rassom ham aniq maqsadni ko‘zlagan holda ilgari surilayotgan g‘oyaga nisbatan o‘z qarashlari, tushunchalarini namoyon eta olsa, rejissyorlik yechimini to‘g‘ri tushuna olsa, spektakl to‘laqonli chiqadi.

Aks holda, ya’ni sahnalashtiruvchi rejissyor va sahnalashtiruvchi rassom talqini bir-biriga mos kelmasa, spektakl davomida bir-birini to‘ldirib turmasa, sahna asari boy beriladi, to‘kis chiqmaydi. Demak, sahnalashtiruvchi rejissyor bilan sahnalashtiruvchi rassom hamkorligi yakkilikda namoyon bo‘ladi. Bu yakkilik rassom tomonidan ishlangan sahna bezagida — ya’ni turli tasvir va detallarda, faktura hamda ranglarda baralla aks etib turadi. Boshqacha qilib aytganda, spektakldagi sahna bezaklarida zamon, makon, vaqt tushunchalari yorqin ochib berilsagina, muvaffaqiyatga erishiladi. Xayrullo Chorshanbiyev keyingi yillarda erishayotgan yutuqlar zamirida xuddi ana shu talablarga xos va mos uyg‘unlik bor.

Masalan, Xoliq Xursandovning “Muhabbatim — qismatim” asari

eslatuvchi arqonlar shaklida ifodalab, unga yashnab turgan qirmizi olmalarni ilib chiqqan.

Bir qarashda oddiy tuyuladigan ushbu yechim zamirida juda kuchli falsafiy ma’no bor. Ya’ni, sevgi-muhabbat haqiqiy va sof, sadoqatli bo‘lsa, inson umri davomida, to sochlar oqarib, qadlar egilib ketgunga qadar, xuddi qip-qizil olmalar misol yashnab turaveradi. Spektakl qahramonlari ana shu o‘rim-o‘rim oppoq sochlarni eslatuvchi, shoxlarida esa qizil olmalar yashnab turgan daraxtlar atrofida, yonida harakatlanadilar. Xayrullo Chorshanbiyevning ana shunday o‘horli rassomlik yechimiga ega bu ishi 2021-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston teatrlarining “Seni kuylaymiz, zamondosh!” ko‘rik-festivalida senografiya yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritib, birinchi o‘ringa munosib deb topildi.

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qalagimiga mansub “Adolat fasli” deb nomlangan spektakl ham Xayrullo Chorshanbiyev ijodida o‘ziga xos sahifa bo‘ldi. Sohibqiron bobomiz Amir Temur hayotidan hikoya qiluvchi mazkur sahna asari har jihatdan original

yozuvchi Chingiz Aytmatov asari asosidagi “Momo yer” spektakliga ishlangan dekoratsiyalar ham yuqorida bildirgan fikrimizga dalil bo‘la oladi. Teatr bosh rejissyori Farhod Boltayev rejissyorligida sahnaga olib chiqilgan ushbu spektakl senografiyasi bir qarashda oddiydek, ya’ni primitivdek tuyuladi.

Ammo spektakl davomida bu primitivlik yo‘qola boradi. Chunki ular harakatga keltiriladi, aktyorlar harakatlanishi, so‘zlashi, ommaviy sahnalarni maromiga keltirib ijro etishda ko‘makdosh vazifasini o‘tay boradi. Asar Ikkinchi jahon urushi yillari front ortida kechgan voqealarga bag‘ishlangan. Dekoratsiya davr keltirib chiqargan sharoitlarga moslab ishlangan, ayni paytda, tanlangan liboslar ham shunga mos. Rejissyor va rassomning yutug‘i shundaki, bir-biriga uzviy ravishda mantiqan bog‘lanib ketgan voqealar rivoji



Taraqqiyot yo‘lidagi g‘ov

Bugungi davr jinoyatchini topish va uni jazolashdan ko‘ra fuqaro yoki ishchi-xizmatchining jinoyat ko‘chasiga kirib qolishining oldini olish, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, bordi-yu to‘g‘ri yo‘ldan og‘ayotgan bo‘lsa, uni haq yo‘lga solish bilan bog‘liq samarali profilaktik choralar ko‘rishni taqozo etmoqda.

Zero, hech bir inson onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. U ulg‘aygan muhit, shart-sharoit yoki boshqa salbiy omillar, tashqi ta’sirlar uni jinoyat ko‘chasiga yetaklashi mumkin.

Korrupsiya, poraxo‘rlilik, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar bilan bog‘liq holatlar sodir etilishining oldini olish, ishchi-xodimlarni ushbu yo‘ldan qaytarish, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish yuzasidan profilaktik, tushuntirish-targ‘ibot, o‘rganish va amaliy yordam berish ishlarini amalga oshirilmoqda. Bundan

maqsad — har bir fuqaroning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning qonunga hurmat hamda itoatkorlik tuyg‘ularini yuksaltirish, xalq manfaatlarini yo‘lida sadoqat bilan xizmat

qilishga da’vat qilishdir. Har bir ishchi-xodim xolis va shaffof fikr yuritmog‘i, oqni qoradan ajrata bilishi, turli yot kuchlarning ta’siriga berilmasligi lozim. Buning uchun esa unda yuqori bilim, ma’naviyat,

xolis va faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanmog‘i darkor. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurash, uni jamiyatimizdan tag-tomiri bilan qo‘porib tashlash, boshqaruvning qonuniy, shaffof,

adolatli tizimini yaratish yuzasidan qator amaliy ishlar tashkil qilinmoqda. Avvalo, huquqiy asoslarning yaratilganligini alohida ta’kidlash joiz.

“Vatan menga nima berdi?” deb emas, aksincha, “Men ona Vatanim taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shdim?” degan savolni o‘zimizga qayta-qayta berishimiz, unga munosib javob berish uchun astoydil mehnat qilishimiz kerak. Yuksak ma’naviyat egasi esa halollikni o‘ziga odat qiladi, har nafasda yurt manfaatlarini ta’minlash uchun kurashadi.

Qarabsizki, korrupsiya, poraxo‘rlilik, jinoyatchilik va huquqbuzarlik degan illatlarga oramizda o‘rin qolmaydi. Shunday ekan, har birimiz egallab turgan lavozimimiz, harbiy unvonimiz yoki yoshimizdan qat’i nazar, zimmamizdagi mas’uliyatli vazifalarimizni halollik, pok vijdon va sadoqat bilan ado etishimiz zarur.

Sobirjon KADIROV,
Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY’ATI
Jo‘rabek TO‘RAYEV (hay atralari)
Abduraim CHORIYEV, Muhiddin ABDURAHMONOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta
2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

BOSH MUHARRIR:
Salohiddin NORQOBILOV
MAS’UL MUHARRIR
X. KARSHIYEV
NAVATCHI MUHARRIR:
U. NORMATOV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.
Reklama va marketing bo‘limi:
76 224-23-85
TELEFONLAR:
76 224-22-92, 76 224-22-80

Qog‘oz bichimi A-2. Nashr indeksi: 6500 Bosishga topshirildi — 09:00 Bosildi — 11:00 Adadi 16 947 nusxa. Buyurtma G-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A uy
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A uy

Gazeta “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.